

## INGLIZ LINGVOMADANIYATIDA STEREOTIPLARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

*Axmedova Sarvinoz Hikmatovna<sup>1</sup>, Raximova Nargiza Baxshilloyevna<sup>2</sup>*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biriga bag'ishlangan. Turli til oilalariga tegishli ingliz va o'zbek lingvomadaniyatlaridagi stereotiplarning pragmatik jihatdan tahlil qilish hamda ularagini farqli va o'xshashliklarni aniqlash, ularni tizimlashtirish kabi masalalar ushbu maqola vazifalaridan biridir. Stereotiplar biror bir xalq to'g'risida umumjahon miqyosda shakllangan umumiyligi fikrdir biroq ularning pragmatik xususiyatlari boshqa lisoniy faktorlarni ochib berishi mumkin. Ingliz lingvomadaniyatidagi stereotiplarning o'ziga xos jihatlari aks etti rilgan.

**Kalit so'zlar:** etnik avtostereotiplar, etnik geterostereotiplar, real, konkret, stereotiplarning funksiyalari, ijobiy yoki salbiy stereotiplar, etnosentrizm, musbat, salbiy.

Stereotiplar – bu u yoki bu guruh a'zolari ongida, tasavvurlari va ustakovkalari mujassam bo'lib, qotib qolgan shunday ong mahsullariki, ulardan shu guurh a'zolari avvalo o'zlarini, qolaversa, o'zgalarni baholashda tayyor “qoliplar” sifatida foydalanadilar. Amerikalik E.Aronson stereotiplarga tavsif berarkan, ularning muayyan ijtimoiy guruhning barcha vakillarida bor bo'lган sifatlar tarzida e'tirof etilishi, shu bilan birga aslida har bir guruhning alohida a'zosida o'zgina xos xususiyatlari mavjudligini inkor qilinishini ta'kidlaydi. Aynan bu holat aslida bizning fikrimizcha, etnosentrizmni keltirib chiqaradi. Chunki stereotiplar real, konkret sifatlar asosida shakllangan bo'lishi muqarrar, masalan, o'zbeklarning soddaligi – bor narsa. Lekin hamma mutloq shunday deyish ham – noto'g'ri, uning yoniga yana boshqa sifatlarni uydurma sifatida tirkash undan ham noto'g'ri tasavvurlarni hosil qiladi. Ayniqsa, o'zga millat vakillari, o'zimizni ham baholaganda, “yaxshi-yomon”, “to'g'ri-noto'g'ri”, “yuqori-past” kabi dixotomiyalardan, solishtirishlardan ogoh bo'lish lozim. Shunday qilib, etnik stereotiplar nisbatan barqaror psixologik tuzilmalar bo'lib, turli etnik guruh vakillarining axloqiy, aqliy, jismoniy, shaxsiy xususiyatlari to'g'risidagi tasavvurlarini ifodalaydi. Etnik stereotiplarning mazmunida odatda o'zgalarga muayyan sifatlarni qo'shib aytish, bayon etish xos bo'ladi. Shu nuqtai nazardan olimlar etnik stereotiplarni ikkita toifaga bo'ladi:

- etnik avtostereotiplar;
- etnik geterostereotiplar.

Avtostereotiplar – muayyan etnik guruh a'zolarining o'z qavmi, ya'ni, etnik guruhiga nisbatan shakllangan fikrlari, baholari, munosabatlardir. Odatda avtostereotiplar mazmunan ko'proq ijobiy sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi.

Geterostereotiplar aksincha, o'zga millat va elat vakillari to'risidagi baholar, munosabat va qarashlar bo'lib, ular ijtimoiy tarixiy taraqqiyot davomida xalqlarning o'zaro hamkorlik munosabatlari xarakteriga ko'ra ham ijobiy, ham salbiy bo'lishi mumkin.

Etnik stereotiplarning mazmunida eng o'zgarmas va barqaror tuzilma – bu u yoki bu baholanayotgan millatning:

<sup>1</sup> BuxDU Ingliz tilshunosligi kafedrasi dotsenti, f.f.f.d.(PhD), [s.h.axmedova@buxdu.uz](mailto:s.h.axmedova@buxdu.uz)

<sup>2</sup> BuxDU II bosqich magistranti, [n.b.raximova@buxdu.uz](mailto:n.b.raximova@buxdu.uz)



- a) tashqi qiyofasi (tog'li xalqlarga nisbatan ularning basavlat, sog'lom bo'lishi);
- b) tarixan kelib chiqishi (masalan, tarixan millatning hamisha g'olib kelishi);
- v) turmush tarzi (ko'ngliochiq yoki jangari);
- g) mehnat malakalari (mehnatkash yoki tanbal);
- d) muloqandmandlik sifatlari (ochiq, kirishuvchan yoki tunt);
- y) axloqiy jihatlari (andishali) kabilardir.

Shu kabi sifatlarning (ijobiy yoki salbiy stereotiplar) o'zgarishi eng avvalo shu xalqlar o'rtaasida ma'lum vaqtarda o'zaro bordi-keldi va shaxslararo aloqalarning o'zgarishi, yaxshi yoki taranglashishiga bog'liq bo'ladi. Masalan, shoxlar va davlat rahbarlarining siyosiy qarashlariga mos ravishda boshqa aloqalar (savdo-sotiqlar, madaniy, diplomatik)ning zavol topishi millat vakillari ongidagi o'sha barqaror stereotiplarni "o'chirishi" (vaqtincha bo'lsa ham) mumkin. Masalan, bir umr biri biridan qiz olib, qiz berib yurgan, quda-andachilik rivojlangan bo'lishiga qaramay, birdan – g'anim millatning qizlari "unchalik yaxshi bo'lmay qolishi" ham mumkin.

Shunday qilib, etnik stereotiplarni hamisha ham xolis, obyektiv deyish qiyin. Etnik stereotiplarning barqarorlashuvidan ayrim xalqlar cho'chiydar ham. Shuning uchun amerikaliklar turli millat vakillaridan iborat jamiyatni "demokratiya jamiyat" deb atab, millatlarni ham yagona "Amerika millati" deb ataydilar. Bu ularning fikricha, etnik stereotiplarga barham berarmish. Lekin oddiy xalq hech qachon o'z ildizlarini unutishni xohlamagandek, etnik stereotiplardan ham xoli bo'la olmaydi. Chunki bora-bora etnik stereotiplar mustahkam va harakatchan, ya'ni, anchagina dinamik xarakterga ega bo'lgan etnik ustakovkalarning shakllanishiga ham turtki beradi. folkloarning o'rni folklor ham ma'lum ahamiyat kasb etadi.

Qadimiy afsona va rivoyatlarni xalq o'zining butun tarixiy taraqqiyoti davomida, turli ijtimoiy ukladlar davrida yaratadi. Shuning uchun xalqnishg bugun kechmishi, uning xohish-istiklari, kelajak bilan bog'liq buyuk orzulari, fikr-tuygulari, axloqiy va ijtimoiy tushunchalari, yashash uchun olib borgan ko'p asrlik tajribalarini o'zida mujassamlashtirgan folklor ni o'rganish shu xalqning psixologik qiyofasini vujudga kelishi yo'llarini tushunishga yordam beradi. Milliy madaniyat va milliy psixologiyaning xususiyatlari, uning ichki emosional tomonlari maqol va matallarda, o'hshatish va nutqda yaqqol namoyon bo'ladi. Har bir xalq o'zining o'tkir maqollariga, tasviriy iborasiga ega. Tildagi bu tasvirlilik bevosita xalqning hayoti va maishiy turmush tarzi, uning tarixi va tabiatini bilan bog'liq bo'ladi. Bu yerda xalq borlikni o'ziga xos ravishda idrok etuvchi san'atkor sifatida namoyon bo'ladi. Maqol va matallar, xikmagli gaplar bir necha asrlar, necha avlodlarning aql-zakovat chig'irigidan o'tib sayqallangan xalq donoligidir. Ajodolarimiz yaratgan xikmatli gaplar necha avlodlarning manaviy ehtiyojlarini qondirib kelgan.

Stereotiplarning funksiyalari shartli ravishda "musbat" va "salbiy" ga bo'linishi mumkin. Stereotipning asosiy ijobiy tomoni inson fikrlash faoliyatining saqlanishidir. Inson hayoti qisqa vaqt ichida hamma narsani bilmaydi, biroq boshqalarning tajribasidan kelib chiqadigan bo'lsak, haqiqat bilan aloqasi bo'limgan taqdirda ham ko'p narsalar haqida fikr yuritish mumkin. Salbiy jihat, bu yoki shu stereotipning sodiqligini tasdiqlaydigan shaxsiy tajriba (hatto bir martalik) ham bilinish davrida ro'y berishi va odamlarni boshqa holatlardan farqli ravishda qabul qilishlariga to'sqinlik qilib keladi.

Britaniyaliklar kundalik shaxsiy aloqalarni nisbatan yuqori baholaydilar. Britaniya bo'yicha ba'zi yozuvchilar Britaniyaning "o'ziga tegishli bo'lish" istagi haqida gapirishgan va albatta, pab yoki ishchilar klubi yoki turli xil sport va o'yin-kulgilarga bag'ishlangan boshqa ko'plab klublar ko'pchilikning hayotida juda muhim rol o'ynaydi. Ko'p odamlar o'zlarining ijtimoiy aloqalarini mehnat orqali amalga oshiradilar va qisman buning natijasida kasb ham o'zlikni anglashning muhim jihatni hisoblanadi. Britaniyaliklar o'zlarini imkon qadar yuqori sinfga mansubdek ko'rsatishga harakat qilishadi, lekin hech kim "snob" deb o'yashni xohlamaydi.



Inglizlar bir necha tirik an'anaga ega va ular bir-birlari bilan bir xil kundalik odatlarga ega bo'lish uchun juda individualdirlar. Ular boshqacha bo'lishlari bilan faxrlanadilar. Biroq, bu ular o'zgarishlarni yoqtirishlarini anglatmaydi. Ular yo'q. Ular o'zlarini an'anaviy tarzda tutmasliklari mumkin, ammo ular an'ana va barqarorlik ramzlarini yoqtiradilar. Inglizlar ancha konservativ va ularning konservativizmi o'zlarining individualligi bilan uyg'unlashishi mumkin. Nega ular boshqalarga o'xshab o'zgarishi kerak? Haqiqatan ham, ular haqida gapiradigan bo'lsak, boshqalarga o'xshamaslik o'zgarmaslik uchun yaxshi sababdir. Ularning yo'lning chap tomonida haydashlari bunga yaqqol misol bo'la oladi. O'lchov tizimlari yana bir misoldir. Britaniya hukumati ko'p yillardan beri britaniyaliklarni dunyoning deyarli hamma joylarida qo'llaniladigan tarozilardan foydalanishga undashga harakat qilmoqda. Ammo Britaniyada hamma hali ham funt va untsiyada xarid qiladi.

Zamonaviy inglizlar haqiqatan ham shovinistik emas. Boshqa mamlakatlardan kelgan odamlarga ochiq dushmanlik juda kam uchraydi. Agar umuman shovinizm bo'lsa, u jaholat orqali o'zini namoyon qiladi. Ko'pchilik britaniyaliklar Evropa va u erda kim yashaydiganligi haqida juda kam narsa bilishadi. Evropaning mashhur qiyofasi, bu frantsuzlar bilan bog'liqdir.

#### REFERENCES:

1. Akramov, I. I. (2022, January). The special characteristics of the aphorisms. In International journal of conference series on education and social sciences (Online) (Vol. 2, No. 1).
2. Geeraerts, Dirk and Cuyckens, Hubert (2007). The Oxford Handbook of Cognitive Linguistics. Oxford University Press
3. Craig McGarty, Vincent Y. Yzerbyt va Russell Spears. Stereotypes as explanations. Cambridge university press, 2002
4. Krasnyx V.V. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология: курс
5. лекций – М.: Гнозис, 2002. – С. 12.
6. Maslova V.A. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб.
7. заведений – М.: Академия, 2001. – С. 32.
8. Craig McGarty, Vincent Y. Yzerbyt va Russell Spears. Stereotypes as explanations. Cambridge university press, 2002.
9. Umurova, X. Semantic Properties of the Terms of Wedding Ceremony Used in Bukhara Dialect. JournalNX, 6 (09), 58-62

